

7-oktyabr – Xalqaro paxta kuni

O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi joriy yilning 7-oktyabr kuni “Xalqaro paxta kuni”ga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazdi. Vazirlik binosi hamda uning atrofida tashkil etilgan yarmarka va ko‘rgazmalarda paxtadan olinadigan mahsulotlar namoyish qilindi, ilmiy-amaliy seminarlarda olimlar va mutaxassislar o‘z ma‘ruzalari bilan ishtirok etdilar, shuningdek, innovatsion va amaliy loyihalarning taqdimotlari o‘tkazildi.

Ushbu tadbirda Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqotlar muassasalari ham faol ishtirok etdi.

